

## **Ingliz va o'zbek tillaridagi salomatlik va kasallikka oid frazeologizmlarda leksik-semantik munosbatlar**

*Usarova Madina Ortiqboy qizi*  
*E-mail: kuzibekova1202@gmail.com,*  
*tayanch doktorant*  
*O'zbekiston milliy universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sog'liq, kasallik, davolanish va shifokorlar bilan bog'liq frazeologik birliklarning leksik-semantik tuzilishi qiyosiy metod asosida o'rganiladi. Asosiy e'tibor sinonimiya (ma'no yaqinligi) va antonimiya (qarama-qarshilik) hodisalariga qaratilgan bo'lib, ikki tilli frazeologik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kontrastiv lingvistika, semantik tahlil va komponentli usullar qo'llanilib, sog'liq sohasidagi frazeologizmlarning til va madaniyat bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Maqola materiallari sifatida ikkala tilning frazeologik lug'atlari, korpuslar va sog'liqni saqlashga oid matnlar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida sog'liq-kasallik mavzuidagi iboralar tarkibiy, semantik va pragmatik jihatdan farqlanishi mumkin, biroq ularning universal va milliy xususiyatlari ham mavjud.

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, frazeologik birlik, maqol, salomatlik, kasallik, antonimiya, sinonimiya, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, leksik-semantik xususiyatlar.

## **Лексико-семантические отношения во фразеологизмах, связанных со здоровьем и слабостью, в английском и узбекском языках**

*Усарова Мадина Ортикбой кизи*  
*E-mail: kuzibekova1202@gmail.com*  
*Базовый докторант*  
*Национальный университет Узбекистана*

**Аннотация:** В данной статье изучается лексико-семантическая структура фразеологических единиц, связанных со здоровьем, болезнью и лечением, в английском и узбекском языках с использованием сравнительного метода. Основное внимание уделяется явлениям синонимии (сходство значения) и антонимии (противопоставление), а также анализируются сходства и различия фразеологических единиц в двух языках. В исследовании используются методы контрастивной лингвистики, семантического анализа и компонентного анализа, чтобы показать связь фразеологических единиц в сфере здоровья с языком и культурой. В качестве материалов для статьи были проанализированы фразеологические словари, корпуса и тексты, связанные со здравоохранением, обоих языков. Результаты показывают, что фразы на тему здоровья и болезни в английском и узбекском языках могут различаться структурно, семантически и прагматически, но они также имеют универсальные и национальные особенности.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, фразеологическая единица, пословица, здоровье, болезнь, антонимия, синонимия, английский язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, лексико-семантическая характеристика.

## Lexical-semantic relationships in phraseologisms related to health and sickness in English and Uzbek

Usarova Madina Ortikboy kizi  
E-mail: kuzibekova1202@gmail.com  
Doctoral student  
National University of Uzbekistan

**Annotation:** This article studies the lexical-semantic structure of phraseological units related to health, illness and treatment in English and Uzbek using a comparative method. The main attention is paid to the phenomena of synonymy (similarity of meaning) and antonymy (opposition), and analyzes the similarities and differences of phraseological units in two languages. The study uses contrastive linguistics, semantic analysis and component methods to show the relationship of phraseological units in the field of health with language and culture. Phraseological dictionaries, corpora and texts related to healthcare of both languages were analyzed as materials for the article. The results show that phrases on the topic of health and illness in English and Uzbek can differ structurally, semantically and pragmatically, but they also have universal and national characteristics.

**Keywords:** phraseologisms, phraseological unit, proverb, health, disease, antonymy, synonymy, English, Uzbek, comparative analysis, lexical-semantic characteristics.

**KIRISH.** Til – inson tafakkurining va madaniyatining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u faqatgina aloqa vositasi emas, balki jamiyat tarixi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Har bir til o‘zining frazeologik birliklari orqali xalqning mentaliteti, hayot tajribasi va dunyo haqidagi tasavvurini ifodalaydi. Zamonaviy lingvistik va qiyosiy tilshunoslikda tillarning leksik-semantik tizimini, xususan, frazeologik birliklarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Sog‘liq va kasallik mavzusi inson hayotining muhim qismi bo‘lib, har qanday madaniyat va tilga xos frazeologik ifodalarda o‘z aksini topgan. Ingliz va o‘zbek tillarida sog‘liqni saqlash, kasalliklar, davolanish va shifokorlar bilan bog‘liq turli iboralar mavjud bo‘lib, ularning semantik tuzilishi, antonimik va sinonimik munosabatlari tilning madaniy va kognitiv xususiyatlarini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Frazeologizmlarning lingvistik tahlili sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, sog‘liq va kasallik sohasidagi iboralarning ingliz va o‘zbek tillaridagi qiyosiy semantikasi, xususan, antonimiya va sinonimiya jihatlari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Bu mavzu kontrastiv leksikologiya, frazeologiya va etnolingvistik nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ingliz va o‘zbek tillaridagi salomatlik va kasallik bilan bog‘liq frazeologik birliklarni leksik-semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ulardagi antonimik va sinonimik munosabatlarni aniqlash, shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review).** Maqolada Mamatov A., Berdiyev H., Apresyan, Yu., Volkotrub G., Zimina L., Alexina A. Kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolani yozishda tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, chog‘ishtirma, tasniflash, kontekstual tahlil, komponental tahlil kabi bir qator metodlardan foydalanilgan va bir qancha tilshunoslarning ilmiy ishlari tahlili asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Frazeologizmlarni lingvistik tadqiqotlarda o‘rganishda sinonimiya hodisasi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tilning semantik va uslubiy boyligini aniqlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Frazeologik birliklarning sinonimiyasi – ma‘lumki, bir xil yoki o‘xshash ma‘noni ifodalovchi frazeologizmlarning mavjudligini anglatadi. Frazeologizmlar sinonimiyasi tilning boy va rang-barang ekanligini ko‘rsatibgina qolmay, turli xil vaziyatlarda, bir xil ma‘noni ifodalash uchun bir-biriga yaqin

ma'nodagi frazeologizmlar ishlatilish nutqning mazmundor va jozibador bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek sinonim frazeologizmlar o'xshash ma'noni ifodalasa ham, har biri alohida uslubiy bo'yoqdorlikka ega. Misol uchun, o'zbek tilida "tilini tiyish" va "tilni tishlash" iboralari o'zini tuta bilish holatini ifodalasa, har biri o'ziga xos ma'no va uslubiy bo'yoqqa ega bo'lib, birinchi ibora "o'z xohishi bilan gapirmaslik"ni ifodalasa, ikkinchi ibora gapira olmay qolish ma'nosini beradi. Bu kabi birliklar adabiy nutqni boyitib, uni yanada ta'sirchan qiladi. Shuningdek, sinonim frazeologizmlar uslubiy xilma-xillikni yaratishda ham alohida ahamiyatga ega. Ularning har biri ma'lum bir kontekstdagi hissiyotni yoki ma'noni o'zgacha ohangda ifodalashi mumkin.

Frazeologik birliklarning sinonimlari xususida bir qator tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, ularning tadqiqotlari mazkur hodisaning til tizimidagi o'rni, funksional imkoniyatlari va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Jumladan, sinonim frazeologizmlarning semantik jihatlari, ularning kontekstga bog'liq ma'no o'zgarishlari, milliy-madaniy xususiyatlari hamda boshqa tillardagi muqobillari haqida ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan. Ushbu izlanishlar tilning dinamik tabiati, leksik qatlamlarning boyishi va nutqning ta'sirchanligini oshirishda sinonimik frazeologizmlarning ahamiyatini yanada yoritib bergan. Xususan, Sh.Rahmatullayevning ilmiy tadqiqot ishlarida ham bir qator fikrlar bayon etilgan bo'lib, "Sinonimiya frazeologik birliklarda ham anchagina. Shu sababli so'zlardagi bu hodisani leksik sinonimiya deb, iboralarda esa frazeologik sinonimiya deb atash, bir sinonimiya uyasida ham so'z, ham ibora qatnashsa, leksik-frazeologik sinonimiya haqida gapirish o'rinni. Bularning barchasi birgalikda lug'aviy sinonimiya hosil etadi"[6, 56]

Shuningdek, D.Y. Apresyan o'zining bir qator asarlarida, frazeologik sinonimlarga to'xtalar ekan, ularning tasnif etilishiga e'tibor qaratamiz. Olimning fikricha, iboralarning ma'nosi, sinonimik funksiyasi, sintaktik shakli hamda kontekstual shartlanishi frazeologik sinonimiyani hosil qiluvchi asosiy belgilar, ya'ni mezonlar sifatida e'tirof etiladi[2, 351]. Demak, frazeologik birliklarda sinonimiya bilan bir qatorda antonimik munosabatlar ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Bir qator olimlar turli tizimli tillarga mansub tillarda, ularning chog'ishtirma tadqiqini amalga oshirish asnosida ushbu semantik munosabatning ham frazeologik birliklardagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishgan. Jumladan, Rozental D.E., Golub I.B., Telenkova M.A. tomonidan yaratilgan "Sovremenniy russkiy yazik"[3, 21-26], shuningdek, bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida ham bu kabi masalalar ko'rilgan. G.I.Volkotrubning "Frazeologicheskiye antonimiko-sinonimicheskiye paradigmi sovremennogo russkogo yazika" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida nafaqat frazeologizmlarning sinonimiyasi, balki antonim-sinonim paradigmasi tadqiq etilgan. Bu kabi ishlarni ko'plab keltirish mumkin, nafaqat bitta til doirasidagi frazeologizmlar sinonimiyasi, balki turli tizimli tillarga xos ikkita til frazeologizmlarining sinonimik xususiyatlarini chog'ishtirib o'rgangan olimlarimizning ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Frazeologik sinonimiya tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko'rsatib turuvchi hodisalardan biridir. Sinonimiya vositasida nozik ma'no qirralarini anglatishga, rang-barang stilistik bo'yoqlarni ifodalashga erishiladi. Sinonimlardan birini tanlab, ishlatish bilan voqelikning bir qirradi bo'rtadi. Aslida sinonimiya tug'ilishi uchun lug'aviy birliklar (shuningdek, grammatik birliklar ham) o'zaro ma'lum tenglikka, bir xillikkagina emas, balki farqlanishlarga ham ega bo'lishi lozim. So'z yoki iborani tanlab ishlatishda har gal ana shu farqlanishlarni nazarda tutishga to'g'ri keladi. Muayyan fikr yoki munosabatni bildirishda sinonimik uyadan yagona, eng muvofiq so'z yoki iborani tanlab o'la bilish talab etiladi. Sinonimlardan nutqni ravon tuzishda, takrordan qochishda, shuningdek, tovush (talaffuz) noqulayliklarini bartaraf qilishda unumli foydalaniladi. Frazeologik sinonimlarni turli nuqtai nazardan o'rganib baholash mumkin[4, 252].

Salomatlik va kasallikka frazeologik birliklarda sinonimlik hodisasi, so'z va ularning leksik-semantik variantlari orasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladigan semantikasi asosida ko'rib chiqiladi. Nafaqat ikki so'z (leksik sinonimlik), so'z va frazeologik birlik, balki bir yoki bir necha frazeologik birlik ham bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin.

O‘zbek tilidagi *o‘ziga kelmoq* – salomatlik va kasallikka oid frazeologik birligi “behushlikdan qaytmoq” ma’nosida og‘zaki nutqda qo‘llaniladi, *hushiga kelmoq* –“odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq” ma’nosida ham kitobiy, ham og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladi.

*Ot dumini gajak qilgancha qor sachratib chopib ketdi. Hammamiz orqasidan qarab goldik. Oqsoqol hamon o‘ziga kelolmas, soqoli titrab, pishqirib nafas olardi. (O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi)*  
*Dahshatli og‘riqdan hushimga keldim. Yana o‘sha sarg‘ish tuman. (O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi)*

Ingliz tilida ham shu kabi frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ular umumiy jihatdan ma’nodoshlikni ifodalasa ham, alohida kontekstda turlicha ma’noviy bo‘yoqdorlikni kuzatish mumkin. Masalan, *to come to oneself* (norasmiy) va *to regain consciousness* (rasmiy) frazeologik birliklari “o‘ziga kelmoq”, “behushlikdan qaytmoq” ma’nolarini ifodalasa, ularga sinonim bo‘lgan *to snap out of it* frazeologik birligi “o‘ziga kelmoq”, “es-hushini yig‘ib olmoq”, “hushyor tortmoq” ma’nolarini anglatadi.

*“I felt as if I had been wrenched out of my sleep, and forced to come to myself in an instant.”*  
*(Charlotte Brontë, Jane Eyre)*

*“When he finally regained consciousness, he found himself lying in a dimly lit room.”* *(Arthur Conan Doyle, The Adventures of Sherlock Holmes)*

*“Danny wanted to scream at his father to snap out of it, but fear held him back.”* *(Stephen King, The Shining)*

Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, frazeologik birliklarda ham so‘zlardagi singari uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma’nolarini o‘zaro farqlashda yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Antonimiya nafaqat so‘zlarga, balki frazeologik birliklarga ham xos hodisa bo‘lishiga qaramay, bu hodisa iboralarda kam o‘rganilgan[5, 77].

Antonimlarning frazeologik birliklar orasida ham borligi “antonim” terminini kengroq tushunishni talab qiladi. Asli antonim deb o‘zaro zid ma’noni anglatuvchi ikki til birligi tushuniladi. Shunga ko‘ra hodisaning o‘zini antonimiya deb yuritish ma’qul.

Agar antonimlar so‘z bo‘lsa, leksik antonimiya deb, frazeologik birlik bo‘lsa, frazeologik-antonimiya deb, so‘z bilan frazeologik birlik bo‘lsa, leksik-frazeologik antonimiya deb atash o‘rinli[1, 152]. Bu uch turdagi antonimiya birgalikda lug‘aviy antonimiyani tashkil etadi, bunda u grammatik antonimiyaga qarama-qarshi qo‘yib nomlangan bo‘ladi[9, 345].

Frazeologik antonimiyada ikki frazeologizmni qiyoslash ularning semantik jihatdan qarama-qarshi belgilariga asoslanadi. Ingliz tilida A.I. Alexinaning frazeologik antonimiyaga bag‘ishlangan tadqiqotida zoonimik komponentli frazeologizmlar alohida tahlil qilinmagan[7, 16].

Frazeologik antonimiya, odatda, til tizimidagi barqaror birikmalarning semantik oppozitsiyasini aks ettiradi va ikki yoki undan ortiq frazeologik birliklarning bir-biriga zid ma’noga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu hodisa turli tillarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi va leksik birliklar o‘rtasidagi bog‘lanishi tilshunoslik tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Frazeologik antonimiyaning o‘rganilishi umumiy antonimiya nazariyasi doirasida amalga oshirilsa-da, frazeologizmlarning tarkibiy yaxlitligi va idiomatik xususiyatlari ushbu fenomenning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Frazeologik antonimiyaga oid tadqiqotlar ko‘pincha frazeologik birliklarning tarkibiy tuzilishini, semantik yondashuvlarini va tildagi qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, o‘zbek tilidagi *tetik bo‘lmoq* (energetik, sog‘lom bo‘lish) va *lahm bo‘lmoq* (juda ozib ketish, zaiflashish), ingliz tilidagi *to be full of beans* (energiya va sog‘liq bilan to‘la bo‘lish) va *to be out of sorts* (o‘zini yomon his qilish, betob bo‘lish) frazeologik birliklarida antonimiya hadisasi kuzatiladi. Bu misollarda “bo‘lmoq” va “to be” fe’llari umumiy bo‘lib, “tetik-lahm” va “full of beans-out of sorts” komponentlari ularni antonimga aylantirmoqda.

Ba'zi holatlarda antonimik munosabat faqat so'zlar orasida emas, balki so'z va frazeologik birlik o'rtasida ham yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu hodisa frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi va ularning kontekstual dinamikasi bilan bog'liq [8, 12]. Bunday hodisa ayniqsa salomatlik va kasallikka doir frazeologizmlar bilan ikki til doirasida ham yetarlicha uchraydi. Masalan o'zbek tilida quyidagi so'z va frazeologik birliklar misolida ko'rishimiz mumkin:

• *Sog'lom* (salomat, betob emas) – *joni hiqildog'iga kelmoq* (o'ta og'ir ahvolda bo'lish, jon talvasasida yotish)

• *Bardam* (quvvati joyida, tetik) – *eti titrab turmoq* (zaif, sog'lig'i yomon bo'lish)

• *Sog'aymoq* (tuzalmoq, quvvatga ega bo'lish) – *qo'qqisdan yotib qolmoq* (keskin kasallanib qolish)

• O'rnidan turmoq (sog'ayish, yaxshilanmoq) – *to'shakka mixlanmoq* (kasallik tufayli harakatsiz yotmoq)

• *Baquvvat* (juda sog'lom, tetik) – *bir oyog'i go'rda* (o'ta og'ir ahvolda, o'limga yaqin)

Ingliz tilida ham salomatlik va kasallikka oid so'z va frazeologik birlik o'rtasida antonimlik hodisasi tez tez uchrab turadi. Quyida misollar bilan tanishamiz:

• *Healthy* (sog'lom) – *At death's door* (o'lim yoqasida bo'lish)

• *Strong* (kuchli, quvvatli) – *As weak as a kitten* (juda zaif bo'lish)

• *Recover* (tuzalmoq) – *Go downhill* (sog'lig'i yomonlashmoq)

• *In good shape* (jismoniy holati yaxshi bo'lish) – *Feel under the weather* (o'zini yomon his qilish)

• *Full of life* (hayotga to'la) – *On one's last legs* (nihoyatda holdan toygan, juda kasal)

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar ba'zan lug'aviy ma'nosi jihatidan mutlaqo antonim bo'lmasa ham, ularning ekspressiv, stilistik va emotsional tusidan kelib chiqib, frazeologik antonimiya hodisasi yuzaga keladi. Bunday antonimiya til tizimidagi frazeologik birliklarning ma'no jihatidan turli kontekstlarda qanday baholanishini tushunishda muhim rol o'ynaydi va lingvistik tadqiqotlar uchun semantik-pragmatik nuqtayi nazardan katta ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid frazeologik birliklar muhim leksik-semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning antonimik va sinonimik munosabatlari tilning madaniy va kognitiv jihatlarini anglashda kalit rol o'ynaydi. Kkala til ham sog'liqni ifodalashda metaforik frazeologizmlardan keng foydalanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi sog'liq-kasallik frazeologizmlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olgan holda, ularning semantik tizimini chuqurroq o'rganish zarur. Til – nafaqat so'zlar majmui, balki milliy tafakkur va hayot tarzining aynidir. Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganish, xususan, frazeologizmlarning metaforik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tibbiyot sohasidagi qo'llanilishini o'rganish istiqbolli yo'nalish sifatida tavsiya etiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алехина, А. И. (1997). Основы фразеологии русского языка. Санкт-Петербург, 152.
2. Апресян, Ю. Д. (1995). Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Избранные труды. Интегральное описание языка и системная лексикография. Т. II. Языки русской культуры, 351.
3. Бердиев, Х. (1961). Фразеологик луғатлар тузиш масаласига доир. Фразеология масалалари. СамДУ асарлари, янги серия, 106, 10, 21-26.
4. Волкотруб, Г. И. (1983). Слово-символы как компоненты фразеологической единицы // Фразеологизм и слово в русском языке. Ростов-на-Дону, 252.
5. Зими́на, Л. П. (1977). Антонимия фразеологических единиц в современ немецком языке: Учебное пособие по фразеологии. Кемерово, 77.

6. Маматов, А.Э. (2000). Ўзбек тили фразеологиясининг шаклланиши масалалари: филолог. фан. док. ... автореферат. Тошкент, 56.
7. Рахматуллаев, Ш.У. (1952). Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. Высшая школа, 16.
8. Рахматуллаев, Ш. (1980). Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Ўқитувчи, 12.
9. Соколова, Г. Г. (1981). Составляющие коннотативного значения фразеологические единицы // Лингвистические проблемы перевода. Высшая школа, 345.